(9). Турсунов С. Сурхондарё вилояти топонимлари. Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008, 57-бет.

(10). Аюбов А.Р. Топонимы как ценное наследие культуры. Номаи донишгоњ учёные записки. Scientific notes, № 4(57), 2018, с. 53.

Jumaniyazova Dildora Xudoyorovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi; dildora030894 @ gmail.com)

QO‘ZI DAVLATNING NAZMDA TROPLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Annotatsiya. *Maqolada Qo‘zi Davlatning “Ko‘ngil chiroyi” to‘plamidagi g‘azallar misolida shoirning nazmda troplar – metafora, metonimiya va sinekdoxadan foydalanish mahorati lingvopoetik va semantik-funksional jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, muallifning individual uslubiga xos bo‘lgan ma’no ko‘chishlarining badiiy-estetik ta’sirchanligi hamda emotsional-konnotativ vazifalari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *troplar, metafora, metonimiya, sinekdoxa, lingvopoetika, g‘azal, individual uslub, ma’no ko‘chishi, estetik vazifa.*

МАСТЕРСТВО КОЗИ ДАВЛАТА В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ТРОПОВ В ПОЭЗИИ

Аннотация. *В статье с лингвопоэтической и семантико-функциональной точек зрения проанализировано мастерство использования тропов – метафоры, метонимии и синекдохи в поэзии Кози Давлата на примере его сборника «Конгил чиройи». Также раскрыты художественно-эстетическая выразительность и эмоционально-коннотативные функции переносных значений, характерные для индивидуального стиля автора.*

Ключевые слова: *тропы, метафора, метонимия, синекдоха, лингвопоэтика, газель, индивидуальный стиль, перенос значения, эстетическая функция.*

KOZI DAVLAT’S MASTERY OF USING TROPES IN POETRY

Annotation. *The article analyzes the skill of using tropes – metaphor, metonymy, and synecdoche – in Qozi Davlat's poetry from a linguapoetic and semantic-functional perspective, based on his poetry collection "Kongil chiroyi". The artistic-aesthetic impact and emotional-connotative functions of figurative expressions specific to the author's individual style are highlighted.*

Keywords: *tropes, metaphor, metonymy, synecdoche, linguapoetics, ghazal, individual style, figurative meaning, aesthetic function.*

Kirish. Badiiy matnning estetik qimmatini, ifodalilik va ekspressivligini oshirishda mazmuniy ko‘chimlar – troplar tizimi yetakchi o‘rin tutadi. Troplar semantik tabiatiga ko‘ra, miqdoriy (*giperbola, meyozis*) hamda sifatiy (*metafora, metonimiya, sinekdoxa, ironiya*) ko‘chishga asoslangan turlarga ajratiladi [15; 29–30-b.]. Qadimgi grek, hind va rim ritorikasida asoslangan ushbu tasviriy vositalar, dastlab, morfologik hodisa (figuralar esa sintaktik hodisa) sifatida farqlangan bo‘lsa [2;178-b.], keyinchalik rus va Yevropa tilshunosligida (A.A.Potebnya, A.N.Veselovskiy, J.Maruzo, S.Ulman, L.A.Bulaxovskiy) hosila ma’no hosil bo‘lish mezonlari asosida turlicha tasniflangan [4;5;8;12;14]. O‘zbek tilshunosligida R.Qo‘ng‘irov troplarni paradigmatik, uslubiy figuralarni esa sintagmatik hodisalar sifatida tizimlashtirgan [6;81-b.].

Badiiy nutqda eng faol qo‘llanuvchi trop turi *metafora* (mumtoz poetikada *istiora*) yashirin o‘xshatish va aloqadorlikka tayanadi [3;11-b.]. Aristoteldan boshlangan ushbu tadqiq yo‘nalishi uzoq davom etgan sof ritorik va stilistik chegara qolipidan chiqib [1;3-b.], bugungi kunda lingvistik va xususiy-muallif metaforalari hamda ularning mazmuniy ko‘rinishlari (*oddiy, personifikatsiya, sinesteziya*) kesimida o‘rganilmoqda [9;10-b.]. Shuningdek, aloqadorlikka asoslanuvchi *metonimiya* (mumtoz poetikada *majoz*) va uning alohida yoki tutash shakli bo‘lmish *sinekdoxa* ko‘chimlari badiiy tasvir imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim omillardir [7;13-b.].

Ko‘rinadiki, badiiy ko‘chimlarning umumiy nazariy va evolyutsion asoslari jahon hamda o‘zbek tilshunosligida atroflicha yoritilgan bo‘lsa ham, ularning muayyan ijodkor individual uslubidagi pragmatik va estetik imkoniyatlarini, xususan, Qo‘zi Davlat – Davlatyor nazmiy merosidagi semantik-funksional tabiatini maxsus tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bizning ushbu maqolamizdan ko‘zlangan maqsad shoir she’riyatida qo‘llangan mazmuniy ko‘chimlar – troplar tizimini, muallifning metafora, metonimiya va sinekdoxadan foydalanish mahoratini hamda ularning matn poetik tahlilidagi estetik va konnotativ vazifalarini ilmiy asoslashdan iboratdir.

Metodologiya. Ushbu maqolada Qo‘zi Davlatning 1999-yil Toshkentda G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida chop qilingan “Ko‘ngil chiroyi” (shartli qisqartmada – KCh) to‘plamiga kiritilgan g‘azal va muxammaslari empirik material sifatida tanlab olingan. Maqolaning metodologik aso-

sini o‘zbek hamda jahon tilshunosligida shakllangan lingvopoetik, semantik va stilistik tahlil tamoyillari (R.Qo‘ng‘irov, M.Mirtojiyev, N.Mahmudov) tashkil etadi. Badiiy matnlar tarkibidagi mazmuniy ko‘chimlarni – troplarni aniqlash va baholashda lingvistik tavsif, tarkibiy-semantik hamda komponentlar tahlili usullaridan samarali foydalanilgan.

Maqolada ko‘chim turlari (metafora, metonimiya, sinekdoxa) nutqiy vositalarning paradigmatik va sintagmatik xususiyatlari berilgan nazariy tasniflar kesimida bosqichma-bosqich tahlilga tortilgan. Nazariy qarashlarni amaliy faktik materiallar bilan chog‘ishtirishda lingvostilistik qiyoslash hamda matnning emotsional-konnotativ vazifasini ochib beruvchi konteksual-funksional tahlil metodlari qo‘llangan. Bu esa shoir nazmida qo‘llangan obrazli ifodalarning semantik tarkibi va individual-mualliflik mahoratini obyektiv baholash imkonini beradi.

Muhokama va natijalar. Badiiy matnda voqelikning estetik ta’sirchanligi va poetik qimmati shoirning til imkoniyatlarini qay darajada mahorat bilan qo‘llagani bilan belgilanadi. Davlatyor she’riyatida uchraydigan trop turlari – metafora, metonimiya va sinekdoxalar lirik qahramon his-tuyg‘ulari hamda mahbuba obrazining badiiy-estetik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Masalan, Amudaryo sohilida uchratilgan go‘zal pari ta’rifi va oshiqning qalb to‘fonlari haqidagi “Amu qirg‘og‘ida” deb nomlangan g‘azalidagi ma’no ko‘chishlarini tahlil qilishga harakat qilamiz:

Ushbu g‘azalda mahbubaning go‘zalligi, uning oshiq qalbini zabt etishi va tabiat unsurlarini ifodalashda metafora yetakchi o‘rin tutadi. Masalan, “Bir *pari* ko‘rdim ajoyib men Amu qirg‘og‘ida, Ong‘a teng paykar topilmas, hatto jannat bog‘ida” (KCh, 6) deb boshlanuvchi g‘azal matla’sida chiroyda benazir mahbubaning o‘zi to‘g‘ridan to‘g‘ri afsonaviy, go‘zal *pari*ga o‘xshatilib nomlanmoqda. Yoki “Ko‘rdim-u mahzun ko‘ngilda chaqnadi rahshoni nur, Kirdi boshimga *shirin* o‘y *shu’layi chirog‘i*da” baytida mahbubaning chehrasidan taralayotgan nur yoki oshiq qalbida uyg‘ongan umid chiroq shu’lasiga qiyoslanmoqda. Shuningdek, ushbu baytdagi *shirin* sifatlashi ham metaforik ko‘chim sanaladi. Ushbu g‘azalning “Oldi *gul* ruxsori aqlim *sunbuli* tori bilan, Hulla harir gul badanda burma ko‘krak tog‘ida” baytida yorning nafis va ochilib turgan chehrasi *gul*ga va mayda eshilgan, xushbo‘y soch tolalari *sunbul guli*ga qiyoslanmoqda. Keyingi “*Dom*i shahlosi bilankim dil *qo‘shin* qilmish asir, Kuydi ishq *iskanjasi*da siyna sayyod dog‘ida” baytida oshiqning qalbidagi barcha tuyg‘ular, irodasi va kuchi bir butun *qo‘shin* (lashkar)ga, mahbuba esa bu qo‘shinni asir olgan *sarkarda*ga, shuningdek, yorning sehrli, shahlo ko‘zlari oshiqni tutib oluvchi *dom* (tuzoq)ga, muhabbat odamiylikni qisqichdek qisib, azob beruvchi *iskanja*ga o‘xshatilmoqda. G‘azalning 5-baytida mahbubaning labi qimmatbaho *la’l* toshiga, undan olinadigan obihayot (jon beruvchi suv) esa jannatdagi *Kavsar* bulog‘iga qiyoslangan.

Metonimiya – bog‘liqlik, aloqadorlik asosidagi ma’no ko‘chishi bo‘lib, yuqoridagi g‘azal matla’sidagi *Amu sohili* so‘zi va 7-baytdagi *sokin sohilda* birikmasi shunchaki jug‘rofiy joy nomi emas, balki aloqadorlik asosida “oshiq va mahbuba uchrashgan, diydor onlari kechgan muqaddas xotira makoni” ma’nosini anglatadi. 2-baytdagi *bosh* inson tanasida fikrlash markazi bo‘lgani uchun, unga fikr yoki xayol kelishi aloqadorlik asosida butun insonning ruhiy holatiga ko‘chirilgan. 4-baytdagi *sayod* (ovchi) so‘zi aloqadorlik asosida oshiqning ko‘nglini ovlagan “go‘zal mahbubaning shaxsi”ga ko‘chirilgan. Shuningdek, “Larza soldi dillara ko‘z yoshlari, oh, miltirab, Junbushi mavjud *jahon*ning tomchilar titrog‘ida” baytida *jahon* so‘zi aloqadorlik asosida “olamdagi barcha tirik mavjudotlar, insonlar va borliq” ma’nosini ifodalab kelgan.

Ma’lumki, qism orqali butunni yoki butun orqali qismni anglatish sinekdoxani yuzaga keltiradi. Shoirning ushbu g‘azalida ham mahbubaning muayyan husn a’zolari yoki oshiq vujudining qismlari orqali butun inson shaxsini anglatish (sinekdoxa) g‘azalning ta’sirchanligini oshirgan. Masalan, matla’dagi *paykar* – go‘zal qomat orqali mahbubaning butun borlig‘i; 3-baytda *gul badan* – go‘zal tana tilga olinishi orqali mahbubaning o‘zi nazarda tutilyapti (qism orqali butun anglatilgan). Yoki 2- va 4-baytlarda oshiq *ko‘ngil* va *siyna* (ko‘krak) so‘zlarini tilga olganda, o‘z shaxsini, butun ruhiy va jismoniy vujudini, shuningdek, 7-baytdagi “*Sarv qaddin bir quchib*” birikuvida *sarv qad* orqali tik va kelishgan qomatli yorning o‘zini nazarda tutadi.

Davlatyor “Sandin sara” deb nomlangan g‘azali (KCh, 7)da ham mahbubaning go‘zalligi, a’zolari va oshiqning holatini ifodalash uchun metaforadan juda keng foydalanilgan. Jumladan, “Garchi bulbul avji zo‘r anvoyi gullar shavqida, Lek emas ul *to‘ti til* gulshan aro sandin sara” baytida mahbubaning shirin so‘zlashi, nutqi *to‘ti qushi*ga o‘xshatilmoqda. Bu orqali go‘zal gapiruvchi til nazarda tutilyapti. “Ishqda savdoyi sanam sochi taramlar ichra yo‘q, Qayda *yaldo shomi*dek *zulfi siyo* sandin sara” baytida yorning qop-qora sochlari yilning eng uzun va qarang‘u tuni – *Yaldo kechasi*ga o‘xshatilmoqda. Zulm va qorang‘ulik ramzi sifatida mahbubaning sochi – *zulfi siyo* metafora qilingan. Shoir g‘azalning “Yo‘q-qu sayyod etgali dil

kaptarin sahroda sayd, Otgali g‘amza o‘qin yo‘q qoshi yo sandin sara” baytida uchta metaforani mahorat bilan qo‘llagan: 1) oshiqning bezovta va nozik qalbi *kaptar*ga o‘xshatilmoqda. Sahrodagi ovchi (*sayyod*) esa ramziy ma’noda mahbubadir; 2) yorning qarashlari, noz-sitamlari yurakka sanchiladigan *o‘q*qa o‘xshatilmoqda; 3) mahbubaning kamonsimon qoshlari *yoy* (kamon)ga o‘xshatib ifodalangan. Shuningdek, g‘azalning “Lahza ishq anduhidin dillarga taskin topmadim, Tiyra ko‘nglum *mash’ali*, ko‘zi qaro sandin sara” baytida mahbubaning o‘zi yoki uning qarashlari oshiqning qorang‘u (tiyra) ko‘nglini yorituvchi *mash’al*ga o‘xshatlmoqda va “Aylasa gar tanni tark ruhim, davosi bormikan, Jismimga jon etgich ato *Masiho*so sandin sara” baytida esa Iso alayhissalomning o‘liklarni tiriltirish mo‘jizasiga ishora (talmeh) qilinib, mahbuba oshiqning o‘layotgan jismiga qayta jon beruvchi xaloskor – Iso kabi (Masihoso) tasvirlanmoqda.

Ushbu g‘azalning 2-baytidagina metonimik ko‘chim kuzatiladi: “Garchi bulbul avji zo‘r anvoyi gullar shavqida, Lek emas ul to‘ti til gulshan aro sandin sara” baytida *gulshan* (bog‘) so‘zi bu yerda majoziy ma’noda “go‘zallar davrasi, hayot yoki husn olami”ni anglatib kelmoqda. O‘rin-joy atamasi undagi voqelik // muhitga ko‘chgan.

Shoir ushbu g‘azalda ham sinekdoxadan juda samarali va o‘rinli foydalangan. Masalan: g‘azalning 3-baytida “sochi taramlar” orqali sochlari jamlanib o‘rilgan go‘zallar nazarda tutilmoqda, ya’ni qism (*soch*) orqali butun (*go‘zal qizlar*) anglatilgan. Yoki 5-baytda *ko‘zi qaro* orqali qora ko‘zli yorning o‘zi nazarda tutilyapti, ya’ni, butun boshli inson uning bir a’zosi (*ko‘zi*) orqali ifodalanmoqda. Shuningdek, shu baytdagi *dil* va 7-baytdagi *ko‘ngil* orqali, aslida, o‘z vujudi, butun borlig‘i va shaxsini nazarda tutadi.

Davlatyor qalamiga mansub “O‘zgacha” radifli go‘zal g‘azal (KCh, 8)da ham o‘zbek mumtoz she’riyatining an’anaviy badiiy tasvir vositalari, xususan, metafora (istiora) va sinekdoxadan mahorat bilan foydalanilgan. G‘azalda, ayniqsa, mahbubaning go‘zalligi, atrofdagi narsa-hodisalarning oshiq ruhiyatiga ta’siri metaforalar orqali ochib berilgan. Jumladan, “Kim ko‘ribdi buncha ko‘rkni, bu qadar anvoyi gul, Bo‘ston ichra beqiyos ruxsori *ra’no* o‘zgacha” baytida mahbubaning chiroyli yuzi, ruxsori ochilib turgan go‘zal *ra’no* gulga o‘xshatilib, mahbubaning o‘zi ramziy ma’noda *anvoyi gul* (turfa gul) deb atalgan. Baytdagi *bo‘ston* (bog‘) so‘zi majoziy ma’noda “go‘zallar olami” yoki “hayot davrasi”ni anglatib keladi, ya’ni joy nomi metonimik holatda undagi muhitga ko‘chirilgan. “Dilda sokinlik netar, ot sursa g‘avg‘o lashkari, Mavjlanur to‘lqinli dil go‘yoki daryo, o‘zgacha” baytida esa oshiqning qalbini vayron qilayotgan, tinchini buzayotgan ishq iztiroblari, ozorlari va go‘zalning nozlari vayronkor *lashkar* (qo‘shin)ga o‘xshatilmoqda. Navbatdagi “Xotirim tarqoq parishon zulfi toridek aning, Charx urar turli xayol- boshimda savdo o‘zgacha” baytidagi *savdo* so‘zi tijorat emas, balki “oshiqning boshidagi ishq sururi, jinnilik va telbalik holati (savdoyilik)” ma’nosida majoziy qo‘llangan. “Bir kalima aytmas ul ming iltijo qilgan bilan, O‘ziga qo‘ygan bino xo‘b kibr-u havo o‘zgacha” baytida *bino qo‘ymoq* iborasi “o‘zini yuqori tutish, kibrlanish” ma’nosida ko‘chma (metaforik) ma’noda kelgan. Shuningdek, bu baytda *kalima* (so‘z) so‘zi “til va nutq” ma’nosida kelgan, ya’ni, mahbuba oshiqqa qarata hech qanday gap yoki javob aytmayotgani metonimiya asosida ko‘rsatilgan.

Ushbu g‘azalning ikki-uch baytida sinekdoxa – insonning biror a’zosi orqali uning butun borlig‘ini ifodalash mahorat bilan qo‘llanganligi kuzatiladi. Jumladan, matlada – “O‘tdi noz birla ko‘chamdin qaddi zebo o‘zgacha, Tarqatib anvoyi mushk–anbar musaffo, o‘zgacha” baytida *qaddi zebo* orqali ko‘chadan o‘tib ketgan go‘zal qad-qomatli mahbubaning o‘zi nazarda tutilyapti, ya’ni. shaxs uning bir qismi – *qaddi* (bo‘ybasti) orqali ifodalangan. Shoir (oshiq) 4-baytda *dilim daryodek mavjlanur* deganda, faqat yuragini emas, balki butun vujudi va ruhiy holatini nazarda tutadi. Shuningdek, 5-baytda mahbubaning soch tolasi – *zulf tori* tilga olinib, u orqali go‘zalning sochlari va umumiy jamoli nazarda tutilmoqda.

Umuman, Davlatyor g‘azallarida mahbubaning husn-jamoli, oshiqning ruhiy holati va tabiat tasvirlari turli narsa-hodisalarga qiyoslash orqali – metaforik holatda ifodalangan. Masalan: *surati suqsur* – mahbubaning go‘zal qomati (yurishi) xushqomat yovvoyi o‘rdak (suqsur)ga; *ko‘zlari ohu//qoshi yo* – yorning ko‘zlari jayron (ohu) ko‘ziga, kamonsimon qoshlari esa yoy (kamon)ga; *ikki shamshiri* – oshiq bag‘rini tiluvchi o‘tkir qarashlar yoki ko‘zlar (“ko‘z” so‘zi tushirilib) ramziy ravishda shamshirga; *qoshlari qunduzdin qaro* – qoshlarning tim qoraligi qunduz terisining rangiga; *orazi oftobi // xurshidi ruxsor* – yorning quyoshdek porloq va nurli chehrasi to‘g‘ridan to‘g‘ri oftobga//xurshidga; *tillari bulbuligo‘yo* – mahbubaning shirin so‘zlashi va nutqi sayrayotgan bulbulga; *la’li //yoqut dudog‘i* – yorning lablari rangi va qimmati jihatidan qimmatbaho qizil toshlar – la’l hamda yoqutga; *orazi oyjamol* – mahbubaning chiroyli yuzi to‘lin oyga; *nozik nihol* – yorning nafis va suluv qad-qomati yangi unib chiqqan daraxt novdasi (nihol)ga; *to‘ti maqol* – mahbubaning jozibador nutqi to‘ti qushining sayrashiga; *olov yonog‘i* – yorning qizargan issiq yuzi alangalanib turgan olovga; *mujgon o‘qi* – mahbubaning o‘tkir va uzun kipriklari yurakni tiluvchi o‘qqa; *tovus raftor* – mahbubaning noz va viqor bilan yurishi tovus qushining harakatlariga; *visol otashi* – uchra-

shuvdan tug‘ilgan kuchli hayajon va ishq otashga (olovga); *ikki otash* – oshiq va mahbubaning bir-biriga tikilib turgan, ishq o‘ti porlagan ko‘zlari “ikki otash”ga; *joni yo‘q surat* – go‘zal yor qarshisida oshiqning hayratdan qotib qolishi jonsiz haykalga yoki rasmga o‘xshatilgan va qiyoslangan. Bunday misollarni yuzlab keltirish mumkin.

Shoir o‘z devonida metonimik qo‘llanishlardan ham juda ko‘p va juda xo‘p foydalangan. Masalan: “Surati suqsur, serjilo Xorazmda bittagina, Ko‘zlari ohu, qoshi yo Xorazmda bittagina” matla’li g‘azali (KCh, 12)dagi *Xorazmda* ifodasi shunchaki jug‘rofiy hudud emas, balki aloqadorlik asosida “shu vohada yashovchi barcha go‘zallar olami, qizlar davrasi” nazarda tutilgan. Shuningdek, g‘azallardagi *bazmimga // gul bazmida* – bazm so‘zi shunchaki o‘yin-kulgi emas, balki oshiqning hayoti, ko‘ngil davrasi yoki oshiq-ma’shuq uchrashadigan muhitni; *boqib qiyo* – qiya boqish (harakat turi) aloqadorlik asosida mahbubaning noz-karashmasi, e’tiborini; *labzi halol o‘lsa* – labz (til, so‘z) so‘zi aloqadorlik asosida insonning bergan va’dasi, ahdi va vafosini; *yuz ochgan gullarin davrasida* – gullar davrasi aloqadorlik asosida chiroyli qizlar, go‘zallar majlisini; *raftorda insof bo‘lmasa* – raftor (yurish-turish harakati) yorning oshiqqa bo‘lgan munosabati, e’tibori ma’nosini; *tummorda insof bo‘lmasa* – tumor (buyum) aloqadorlik asosida uning ichiga solinadigan ishq maktubini yoki yorning oshiqqa yaqinligini; *biyron til erurkim // Kalomga kelmayin tillar* – til (nutq a’zosi) aloqadorlik asosida insonning gapirish qobiliyatini, nutqi va so‘zini; *samodin qosh kermish hilol* – hilolning shakli orqali insonning qosh kerishini aloqadorlik asosida ifodalagan.

Davlatyor o‘z g‘azallarida sinekdoxadan ham o‘rinli va samarali foydalanishga erishgan. Shoir, asosan, inson vujudining ma’lum bir qismi yoki a’zosini tilga olish orqali uning butun borlig‘i, ruhiyati yoki shaxsiyatini anglatish usulini ko‘proq qo‘llagan. Masalan: g‘azallarda *oq siynani // ko‘ksim // siyna uzra* kabi qo‘llanishlarda oshiqning *ko‘krak* (*siyna/ko‘ks*) qismi tilga olinib, uning butun bag‘ri, yuragi va jismoniy-ruhiy vujudi nazarda tutilgan. Yoki *qaddi zebo // sarv qad* – qad-qomat (qism) orqali go‘zal qadli mahbubaning (butunning) o‘zi; *orazi // ruxsorda insof bo‘lmasa* – chehra, yuz (ruxsor) tilga olinishi orqali yorning butun jamoli va shaxsi; *dilga // ko‘ngil // shod diling // Davlatyor dilin* – dil (yurak/ko‘ngil) so‘zi orqali lirik qahramonning (yoki yorning) butun ichki olami, ruhiyati va shaxsiyati; *ma’shuqa boshiga* – bosh so‘zi orqali mahbubaning butun vujudi, jismi; *diydang uzrakim* – diyda (ko‘z) orqali oshiq o‘z shaxsini va butun borlig‘i; *ko‘zlar ko‘zlarga tushganda* – ikki juft ko‘zning to‘qnashuvi orqali oshiq va mahbubaning yuzma-yuz kelishi, ikki inson shaxsining uchrashuvi; *chehra alvoniy-ol bo‘lib* – yuzning qizarishi orqali insonning butun vujudini qamrab olgan hayajon va uyat tuyg‘usi; *ushshoq ahliga* – ushshoq (oshiqlar) so‘zi orqali oshiqlarning qalbi va shaxsiyatini nazarda tutgan.

Qo‘zi Davlatning “Ko‘ngil chiroyi” devonidagi g‘azallari milliy badiiy tafakkur va lingvopoetikaning yuksak namunasi hisoblanadi. Shoir o‘z asarlarida an’anaviy sharqona lirika obrazlaridan unumli foydalangan holda, mahbubaning sehrli jamolini, oshiqning ichki ruhiy iztiroblari hamda ilohiy va dunyoviy ishq falsafasini chuqur tasvirlashga erishgan. Bunda metafora, metonimiya va sinekdoxa kabi tizimli ma’no ko‘chishlari asarning umumiy emotsional-pragmatik atmosferasini yaratuvchi bosh lingvistik omil vazifasini bajaradi.

Xulosa. Yuqorida tahlilga tortilgan g‘azallarda uchraydigan metaforalar yorning husn-latofatini (masalan, *pari, la’l, sunbul soch, sarv qad, nargis ko‘z*) va oshiq qalbining bezovtaligini (*ko‘ngil qushi, dil qo‘shini, ishq iskanjasi*) jonli hamda silliq tarzda vizuallashtirishga xizmat qilgan. Metonimiyalar esa aloqadorlik va muayyan makon-zamon izchilligi asosida sukunatli xotiralarni, oshiq va ma’shuq davrasini (*Amu sohili, bo‘ston, bazm, ostona*) hamda insonning til va nutq imkoniyatlarini ixcham badiiy tilda bayon etadi. Eng muhimi, lirik qahramon shaxsiyatini va yorning butun tanasini muayyan tasviriy a’zolar (qism) orqali umumlashtirib ifodalashda sinekdoxa usulidan (*qorako‘z, jon, siyna, dil, ruxsor, qaddi zebo*) mahorat bilan foydalanilgan bo‘lib, bu holat she’riyatning ta’sirchanligini yanada kuchaytirgan.

Umuman, Qo‘zi Davlatning nazmiy merosidagi semantik ko‘chimlar o‘zbek mumtoz va zamonaviy badiiy nutqining betakror imkoniyatlarini, tasviriy vositalarning rang-barangligini to‘laqonli namoyish etadi. Shoirning mazkur ma’no ko‘chish hodisalaridan izchil foydalana olish mahorati uning o‘ziga xos individual uslubini shakllantirib, ijodkor asarlarining til xususiyatlarini monografik va lingvopoetik yo‘nalishda chuqurroq tadqiq etish uchun boy ilmiy-nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar ro‘yxati:

(1). Mahmudov N. Metafora va uning lingvopoetik imkoniyatlari. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 4-son, Toshkent, 2023.

(2). Античные теории языка и стиля. Москва–Ленинград, 1936.

(3). Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
(4). Булаховский Л.А. Введение в языкознание. Москва, 1953.
(5). Веселовский А.Н. Историческая поэтика. Москва, "Высшая школа", 1989.
(6). Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Тошкент, "Фан", 1977.
(7). Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. Тошкент, "Ўқитувчи", 1995.
(8). Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. Москва, 1960.
(9). Маҳмудов Н. Тилнинг эстетик вазифаси ва синестетик метафоралар. "Ўзбек тили ва адабиёти", Тошкент, 2012, 3-son.
(10). Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. Тошкент, "Мумтоз сўз", 2010.
(11). Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. Тошкент, "Фан", 1976.
(12). Потебня А. Эстетика и поэтика. Москва, 1976.
(13). Реформатский А.А. Введение в языковедение [5-е изд.. Москва, "Аспект Пресс", 1996.
(14). Ульман Ст. Семантические универсалии. Новое в лингвистике. Москва, "Радуга", 1970.
(15). Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. Тошкент, "Ўқитувчи", 1990.
(16). Қўзи Давлат. Кўнгил чиройи (ғазаллар ва мухаммаслар). Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1999, 304 бет.

Sharipova Sadoqat Olimboy qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi; sharipovasadoqat16@gmail.com)

XORAZM VOHASI MAQOLLARIDA MEHNAT QADRIYATINING AKSIOLINGVISTIK IFODASI

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm vohasi maqollarida mehnat qadriyatining til orqali ifodalanish mexanizmlari aksiolingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Unda paremiologik birliklarning baholovchi semantikasi, ularning milliy aksiosferani shakllantirishdagi o'rni hamda Xorazm shevasiga xos maqollarda mehnatsevarlik va dangasalikning lingvistik oppozitsiyasi yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *aksiolingvistika, paremiologiya, Xorazm shevasi, maqol, mehnat konsepti, baholash.*

АКСИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЦЕННОСТИ ТРУДА В ПОСЛОВИЦАХ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

Аннотация. *В статье с позиций аксиолингвистического подхода анализируются механизмы языкового выражения ценности труда в пословицах Хорезмского оазиса. Рассматриваются оценочная семантика паремиологических единиц, их роль в формировании национальной аксиосферы, а также языковая оппозиция трудолюбия и лени, представленная в пословицах, характерных для хорезмского диалекта.*

Ключевые слова: *аксиолингвистика, паремиология, хорезмский диалект, пословица, концепт труда, оценка.*

AXIOLINGUISTIC EXPRESSION OF THE VALUE OF LABOR IN THE PROVERBS OF THE KHOREZM OASIS

Annotation. *This article analyzes the mechanisms by which the value of labor is linguistically expressed in the proverbs of the Khorazm oasis, employing an axiolinguistic approach. It examines the evaluative semantics of paremiological units, their role in shaping the national axiosphere, and the linguistic opposition between industriousness and laziness found in proverbs specific to the Khorazm dialect.*

Keywords: *axiolinguistics, paremiology, Khorezm dialect, proverb, concept of labor, evaluation.*

Kirish. Antropotsentrik tilshunoslikning rivojlanishi natijasida til faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki inson tafakkuri, madaniyati va qadriyatlarini aks ettiruvchi murakkab kognitiv tizim sifatida talqin qilinmoqda. Ana shu ilmiy paradigma doirasida shakllangan aksiolingvistika tilda mujassamlashgan qadriyatlar tizimini, baholash kategoriyasini hamda til egalarining milliy dunyoqarashini o'rganishga qaratilgan mustaqil yo'nalishdir.

Aksiolingvistik nuqtayi nazarga ko'ra, baho obyektiv borliqning bevosita aksi emas, balki insonning ijtimoiy tajribasi va madaniy ongidan o'tgan subyektiv munosabat mahsulidir. Shu sababli til birliklari, ayniqsa, maqollar, jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni saqlovchi hamda avlodlarga uzatuvchi lingvomadaniy kod vazifasini bajaradi.

Xorazm vohasi maqollari voha aholisining mehnat madaniyati, turmush tarzi va axloqiy qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan noyob til qatlamidir. Ularni aksiolingvistik jihatdan tadqiq etish mehnat konsep-